

Vatan aziz, Vatan muqaddas




O'qing.

Vatan – mo'tabar

Vatan – inson tug'ilib o'sgan joy, ota-bobolar yashagan diyor. Vatan – siz sevgan odamlar makoni. Siz yashayotgan xonadon, mahalla, qishloq, shahar ham Vatan ichidagi kichik Vatandir.

Vatan ona tuproqdan boshlanadi. Uning har bir qarich yeri muqaddasdir. Inson uchun suv, havo, ota-ona qanchalik aziz bo'lsa, Vatan ham shunchalik mo'tabar.

Dunyoda mamlakatlar, shaharlar ko'p. Lekin inson uchun uning Vatani ona kabi yagonadir.





Savollarga javob bering.

1. Ushbu matn nima haqida?
2. Vatan haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. Vatan nimadan boshlanadi?



Izohli lug‘at:

mo‘tabar – aziz;

makon – yashash joyi.



Topshiriqni bajaring.

- Matnning har bir qismini alohida o‘qing.
- Matndan “Vatan” so‘zi ishtirok etgan gaplarni toping.
- Nechta gap o‘qidингiz?
- Maqollarni o‘qing va mazmunini izohlang.

Vatansiz



– kuysiz



bilan tirik,



– el bilan.

Matnni ifodali o‘qing. Maqollarni yod oling.

